



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




No8(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 172 sahifa,
12-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Role of English Collocations, Idiomatic Expressions, and Phraseological Units in Developing Communicative Competence in Higher Education	10
<i>Alimov Jamshid Ravshanovich</i>	
Milliy xoslangan lisoniy birliklarni teglash tamoyillari	16
<i>Yorkulov Zafarjon Bakirovich</i>	
Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari	20
<i>Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi</i>	
O'qituvchilar darslarni qanday qiziqarli tashkil etishlari mumkin?	26
<i>Dilnura Rustamovna Xamrayeva</i>	
Tarbiya texnologiyasi – talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida	33
<i>Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich</i>	
Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillari	40
<i>Rahmatova Nasiba Sobirovna</i>	
Umumta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimi	46
<i>Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna</i>	
Integrativ ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish	50
<i>Xoldavlatova Gavhar Normaxmatovna</i>	
Klaster asosida TVET tizimida pedagogik innovatsiyalar	55
<i>Sobir Azizov</i>	
Muammoli ta'lim texnologiyasi orqali talabalarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish: "muammo" divergent–konvergent o'quv sikli	57
<i>Djumabayev G'ulomjon Xalillayevich, Yusupov Muxtorbek Roximovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlarini o'rgatishning tashkiliy-metodik asoslar	62
<i>E. E. Jumayev</i>	
Autentik materiallar asosida bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining eksperimental samaradorligi	65
<i>Jumayeva Gulxan Amrullayevna</i>	
Aleksandr Nil pedagogik ta'limotida shaxs erkinligini rivojlantirish mexanizmlari: ingliz filologiyasi talabalari misolida	71
<i>Atamirzayev Bahrom Bahodir o'g'li</i>	
TPACK modeli asosida ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning adaptiv metodik tizimi	75
<i>Omonova Maftuna Shermatovna</i>	
Multimodal vizual tayanchlar va flashcard asosidagi topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	82
<i>Sevara Alimurodova, Ayubova Saida</i>	
Raqamlashtirish jarayonida elektron ta'lim resurslarini yaratishning metodik asoslarini takomillashtirish	88
<i>Nurmaxonov Kayrat Erpayizovich</i>	
Modulli ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari	95
<i>Poyonova Fazilat Olimovna</i>	
Individual ta'lim sharoitida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini pedagogik tajriba-sinov va matematik-statistik tahlil asosida baholash	100
<i>Gulbaxor Abdullayevna Gaynazarova</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida raqamli menejment tizimlarini joriy etish muammolari va ularni bartaraf etishning samarali yo'llari	106
Matnazarov Hurmatbek Egamberganovich	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	110
Sodiqov Rafikjon Turobjon o'g'li	
Bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ...	114
To'xtayeva Dilrabo Nematovna	
Inklyuziv ta'lim: mohiyati, tamoyillari	119
Choriyeva Muxlisa Jumamurodovna	
The Role of Neuromuscular Dentistry in Dental Practice	123
Turayev Alimjan	
Orthodontics' Digital Transformation (Literature Review)	128
Khusanbaeva Jasmin Shavkatovna, Xazratov A. I.	
O'zbekiston SSRda ta'lim islohotlari davrida pedagogika bilim yurtlari faoliyatida o'qituvchilarni tayyorlash jarayonlari va amaliy muammolar	136
Mamatkulova Maxfuza Kozimovna	
Application of Mechanotherapy Techniques in Oral and Craniofacial Surgical Methodologies (Literature Review)	140
Marufova Farangiz Gayratovna	
Theoretical Foundations for Developing Communicative Competence of Future Doctors	147
Nasimova Shahnoza Ziyodullayevna	
Формирование функциональной грамотности и "гибких навыков" (Soft Skills) у учащихся начальных классов в контексте реализации национальной учебной программы Узбекистана	152
Ю. С. Тажиева	
Talabalarda mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish metodlari	156
Jabborov Toxirjon Maqsudali o'g'li	
Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi onim komponentli frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari	160
Koyshekenova Tatyana Kenesariyevna	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi	164
Qo'shaqov Farrux Furqat o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faollikni oshirishning pedagogik usullari	169
Xoldarova F. M.	

INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARIDAGI ONIM KOMPONENTLI FRAZELOGIZMLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Koyshekenova Tatyana Kenesariyevna

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
ingliz tili va adabiyoti kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada turli tillar tizimiga kiruvchi ingliz va qoraqalpoq tillaridagi onim komponentli frazeologizmlarning, ya'ni tarkibida antroponimlar va toponimlar bilan qo'llaniladigan turg'un so'z birikmalarining lingvokulturologik xususiyatlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: frazeologizm, onimlar, antroponimlar, toponimlar, kontrastiv tahlil, til, madaniyat, kommunikatsiya.

Abstract: This article reveals the linguacultural features of phraseological units with onymic components, that is, set expressions containing anthroponyms and toponyms, in English and Karakalpak, which belong to different language systems.

Key words: phraseological unit, onyms, anthroponyms, toponyms, contrastive analysis, language, culture, communication.

Аннотация: В данной статье раскрываются лингвокультурологические особенности фразеологизмов с онимическим компонентом, то есть устойчивых словосочетаний, содержащих антропонимы и топонимы, в английском и каракалпакском языках, относящихся к разным языковым системам.

Ключевые слова: фразеологизм, онимы, антропонимы, топонимы, контрастивный анализ, язык, культура, коммуникация.

KIRISH

Til va madaniyat o'zaro bog'liq bo'lib, ularni xalqning milliy-madaniy xususiyatlari bilan parallel ravishda o'rganish muhim ahamiyatga ega. Bu xususiyatlar, ayniqsa, frazeologiyada yaqqol namoyon bo'ladi. Frazeologizmlarning semantik strukturasi ekstralingvistik omillarga bog'liq bo'lib, xalq hayoti, tarixi hamda ruhiy va amaliy tajribasini obrazli aks ettiradi. Lingvokulturologik tahlil frazeologik birliklarni zamonaviy madaniy o'zlikni anglash va turli diskurslarda qo'llash imkoniyatlari nuqtayi nazaridan o'rganishni maqsad qiladi. Kontrastiv yo'nalish esa tildagi frazeologizmlarning etnik va milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlaydi. Onim komponentli frazeologizmlarni madaniyat kontekstida tadqiq etish til va madaniyatning o'zaro ta'siri hamda ularning ma'lumot uzatish usullarini ochib berishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kontrastiv va lingvokulturologik tahlil usullarining integratsiyalashuvi onim komponentli frazeologizmlarda etnik mantiq va madaniy-til xususiyatlarini ochib beradi. V.N. Teliyaning ta'kidlashicha, lingvokulturologiyaning asosiy maqsadi har xil diskurslarda qo'llanuvchi til materialida qayta tiklanuvchi madaniy konnotatsiyalarni tasvirlash orqali so'zlashuvchilarning "kundalik" madaniy-til kompetensiyasini aniqlash hamda sotsiumning jamoaviy o'z-o'zini tushunish xususiyati haqida ma'lumot berishdan iborat ^[5; 15]. Buning uchun frazeologizmlarda madaniy signallarni aniqlash, madaniy konnotatsiya mazmunini va uning leksik-sintaktik, denotativ-signifikativ hamda kognitiv parametrlar bo'yicha tipologiyasini ishlab chiqish zarur. Ushbu tadqiqotda ingliz va qoraqalpoq tillaridagi atoqli otlar frazeologik birliklar tarkibida milliy-madaniy xususiyatlarni aks ettiruvchi asosiy komponent sifatida tahlil qilinadi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Frazeologizmlarda atoqli otlar ma'nosining madaniy komponenti aktualashtirilib, u xalqning ijtimoiy va ruhiy turmushining milliy-madaniy xususiyatlarini, psixologiyasini, turmushini, urf-odat va an'alarini, uning tarixiy va iqtisodiy rivojlanishini aks ettiradi. Onim komponentli frazeologik birliklarning xalqning milliy-madaniy xususiyatini aks ettirish usullarini shartli ravishda uch guruhga bo'lish mumkin. Birinchidan, frazeologik birliklar tarkibida jamiyatning barcha a'zolariga yaxshi ma'lum bo'lgan real tarixiy shaxsni anglatadigan atoqli ot bo'lishi mumkin. Lekin bunday davlat arbobi, olim, ixtirochi, monarx yoki aristokrat avlodining tarixdagi o'rni uning zamondoshlari o'ylaganidek ahamiyatli bo'lmasa ham, vaqt o'tishi bilan uning nomi unutilib, ushbu onomastik asosiy komponentni o'z ichiga olgan obrazli frazeologik birliklar sekin-asta qo'llanishdan chiqib ketadi. Bunga misol sifatida Annie Oakley frazeologik birligini ta'kidlab o'tish mumkin. Chunki bu frazemadagi Annie Oakleya-toqli oti hozirgi vaqtda deyarli unutilib ketgan o'tmishdagi mashhur amerikalik sirk aktrisasi nomi bilan bog'liq bo'lgan.

Tilda "bepul билет, kontramarka, ruxsatnoma" degan ma'noni anglatadi. Lekin bu guruhga kiruvchi ko'plab frazeologik birliklar bugungi kunda ham keng qo'llaniladi. Masalan:

- Teddy boy – "sanjer" (kashandalik/kino uslubida kiyinuvchi), stilyaga (o'ziga xos kiyinish usuli bilan ajralib turadigan ingliz qiroli Eduard VII ning nomi bilan bog'liq);
- Prince Albert – "uzun etakli syurtuk" (bunday syurtukni 1860-yili AQSHga kelgan shahzoda Albert, qirolicha Viktoriyaning turmush o'rtog'i kiygan);
- John Hancock – "shaxsiy qo'l tili/dastxat, imzo" (Dj. Xenkok – Mustaqillik Deklaratsiyasiga birinchi bo'lib qo'l qo'ygan amerikalik davlat arbobi);
- a bloody Mary – "qonli Meri" (aroq, tomat sharbatidan muz bilan tayyorlanadigan kokteyl, Angliya qirolichasi Mariya Tyudorni shafqatsiz quvg'inlari uchun protestantlar "qonxo'r" deb atagan);
- the Arab of the gutter – ko'cha bolasi, qarovsiz odam;
- Zángi baba – qoramolning piri;
- Oysil qara – tuyalarning piri;
- Kerbalanín shóli – halokat joyi (Hazrati Alining bolalari o'lgan cho'l).

Ikkinchi guruhga tarkibida badiiy manbalardagi atoqli otlar bor frazeologik birliklar kiradi. Adabiyot va xalq og'zaki ijodiyoti tillarni ancha boyitib, ularga qadimiy turmush so'zlashuv tiliga kirib ketgan va so'zsiz shu tilda so'zlashuvchi xalqning milliy xususiyatini aks ettiradigan ko'plab ochiq-oydin obrazlarni in'om etdi. Masalan:

- a Mark Tapley – "har qanday vaziyatda ham kayfiyati tushmaydigan odam" (Ch. Dikkensning "Martin Chuzzlewit" romanidagi qahramonning nomi bo'yicha);
- a Paul Pry – "boshqalarning ishiga burnini tiqadigan odam" (Dj. Pulning "Paul Pry" komediyasining bosh qahramoni);
- the daughter of Eve (Eve's daughter) – "Evaning qizi, ayol zoti";
- the Arabian Bird – feniks qushi;
- the eye of Greece – "Gretsianing ko'zi", Afina shahrining nomlanishi (Dj. Milton o'zining "Qayta kelgan jannat" dostonida Afinani shunday atagan);
- Alpamistiń alpinday – juda davandaz, botir, kuchli va polvon odam;
- Edigeniń qábiri – mardlik va patriotlik timsoli;
- Qızır İlyas – mangu suvni ichgan, o'lmaydigan karomatli odam;
- Erejep tentektey – o'ylamasdan ish qiladigan, harakatlari tartibsiz, o'ylamay so'zlaydigan odam.

Uchinchi guruhga an'anaviy, keng tarqalgan erkak va ayol-qiz nomlari, geografik nomlanishlar bilan qo'llaniladigan frazeologik birliklarni kiritamiz. Kundalik so'zlashuv tilida keng qo'llaniladigan atoqli otlar ko'plab frazeologizmlarning tarkibiga kirib, ularga ko'pincha alohida ekspressiv-emotsional bo'yoq beradi. Quyidagi atoqli otlarni misol sifatida ta'kidlab o'tish mumkin:

- ingl. Betty, Tom, Jack, Mary, Edna, Joan antroponimlari va Roman, Trojan, Indian toponimlari;
- qq. Gulayım, Barşın, Qoshniyaz, Láyli, Áliy va h.k. Masalan: a Roman holiday – xavfli ermak (qadimiy Rimda bayramlarda gladiatorlar urushi tashkillashtirilgan);

- a Trojan horse – Troya oti, yashirin xavf, qo'poruvchilik faoliyati;
- a wooden Indian – indamas va duduq/tuyuq odam;
- Qosshim Qoshniyoz – qadimiy qoraqalpoq turmushida “qosshi” deb boylarning, botirlarning yoki yo'lovchilarning yonida yuradigan, xizmatini qiladigan ishonchli yordamchisiga aytilgan. Hozir bu birlik so'zlashuv tilida yaqin do'st, sirdosh, birga yurgan yo'ldoshiga aytiladi;
- Barshinniń shashınday(Barshinning sohidek) – juda uzun, qalin va qora soch va h.k.

TAHLIL VA NATIJALAR

Frazeologiyaning milliy sifatleri, hammasidan burun, unda asosiy milliy elementlarning ko'pligi bilan tasdiqlanadi. Frazeologizmlarning ko'pchiligi milliy asosda paydo bo'lganligi va u yoki bu xalqning ko'p asrlik aqliy-ruhiy ijodiy faoliyatining mevasi ekanligiga gumon yo'q. Lingvomadaniy paradigma orqali amalga oshiriladigan qiyosiy tadqiqot frazeologizmlarda til, madaniyat va kommunikatsiya belgilari orqali universal, madaniy va milliy-spetsifik xususiyatlarni aniqlashga qaratilgan. Bu uch asosiy belgining kesishgan yerida frazeologizmning “hayoti” amalga oshadi. Frazeologizmlar til belgisi sifatida bo'layotgan voqea haqida xabar beradi, haqiqatni obrazli tarzda tasvirlaydi, baholashni yetkazib beradi, emotsiyani bildiradi. Frazeologizmning mazmun planiga sistematik-tildagicha bayon qilish plani mos keladi. Frazeologizmlarning semantik tahlili obraz etimologiyasiga, ichki shakliga, asosiy metaforalarning ochilishiga olib keladi, kontekstda paydo bo'ladigan va uzuallashgan (odatga aylangan) ma'noning yetishmovchiligini to'ldiradigan konnotatsiyani tasvirlaydi. Konnotatsiya tushunchasi semantik talqinni har xil bilim turlari makonidagi til belgisining talqin darajasiga olib chiqadi. Til semantikasi madaniy semantika bilan bog'liqlikda qaraladi; til belgisida aks etgan madaniy komponent yoki madaniy belgilangan ma'nolar ajratiladi.

Frazeologizm madaniyatning belgisi sifatida xalqning an'analarini saqlaydi, frazeologik obrazga asos bo'lgan kundalik-turmush, madaniy-ritual, diniy, tarixiy, badiiy, mifologik, ilmiy va h.k. realliklar haqidagi madaniy bilimlarni avloddan-avlodga yetkazadi. Frazeologizm obrazda turg'un madaniy tushunchalarni mustahkamlaydi va bo'layotgan voqeaning ramziga aylanadi, vaziyatlarning stereotipiga aylanadi, reallikning qandaydir sifatlarining etaloni hisoblanadi. Frazeologizm o'zining ichki shaklining teranligida insonning dunyoni qabul qilishining boshlang'ich modellarini yoki frazeologik obrazni “ushlab turadigan”, uning “ajralib ketishiga” yo'l qo'ymaydigan va so'zma-so'z aytganda, frazeologizmlarning semantikasining ortidan o'tib ketadigan arxetiplarni saqlaydi. Til belgilangan bir madaniyatni ilmiy tadqiq qilishda borgan sari qadrlı yo'nalishga aylanib bormoqda. Belgilangan bir ma'noda sivilizatsiyaning madaniy modellarining tarmog'i ushbu sivilizatsiyani bildiradigan tilda indekslanadi. Madaniyatning ahamiyatli tushunchalarini bu konturlarni jamiyat uchun ahamiyatli va aniq qiladigan til simvolizmiga suyanmasdan faqat kuzatish orqali tushunish mumkin, deb o'ylashga bo'lmaydi [3; 2-3].

Frazeologizm kommunikatsiya belgisi sifatida uning amalga oshishi uchun optimal kommunikativ sharoitlar shakllanadigan har xil diskursiv amaliyotlarda qatnashadi. Frazeologizmlar nutqda qatnashuvchilarning kommunikativ vaziyatni interpretatsiya qilishi natijasida ko'plab ma'noviy turlarga (ottenkalarga) ega bo'ladi. Bilimlar, qarashlar, madaniyat g'oyalari madaniy konnotatsiyalar – ma'noviylikning alohida kategorial komponenti ko'rinishida nutqda translyatsiya qilinadi; bu orqali frazeologizmning lingvistik, madaniy va kommunikativ-pragmatik xususiyatlari yuzaga chiqadi. Ayrim frazeologizmlarga lingvokulturologik qiyosiy tahlil o'tkazsak, ingliz tilida qoraqalpoq tili frazeologizmlariga quyidagi birliklar mos kelishi mumkinligini ko'rish mumkin: since Adam was a boy – Adam atadan qalgan; Noah's ark – Nuh paygambardın kemesindey; between Scylla and Charybdis – eki ottrı arasinda qalıw; (the) Chinese wall – Qıtay diywalı va h.k. Semantik jihatdan yaqin bo'lgan bu frazeologizmlarning barchasi xususiyatlarga ega bo'lib, ularning orasidan qoraqalpoq tilidagi birlikning optimal ekvivalentini topish uchun yuqorida ta'kidlab o'tilgan uchta belgi, ya'ni til, madaniyat va kommunikatsiya darajasidagi lingvokulturologik tadqiqot yordam beradi.

Shunday qilib, ushbu frazeologizmlarning tarixini, madaniy ma'nolarini ularning obrazli motivlashgan semantikasida solishtirish universal va madaniy o'ziga xoslikni aniqlaydi hamda frazeologizmlarning madaniy belgilar sifatidagi rolini belgilaydi. Frazeologizmlarni kommunikatsiya belgisi sifatida olib qaraydigan bo'lsak, pragmatik yo'nalish solishtiriladi: kommunikativ niyatlar, gapning modallik tuzilishi, nutq faoliyatining konventsiyalashgan (shakllangan) turlari, nutq janrlari, qo'llanishdagi cheklovlar, ya'ni nutq sharoitida kommunikantlarning maqomi yoki roli bilan bog'liq bo'lgan belgilangan ijtimoiy vaziyatlarda frazeologizmning o'rinli qo'llanilishi haqidagi tushunchalar muhokama qilinadi. Frazeologizmlar o'zlarining obrazlari va komponent-so'zlari bilan o'zlarining qo'llanilishining kommunikativ-stilistik registri haqida “signal beradi”. Frazeologizmlarning nutqdagi kommunikativ-nutqiy reprezentatsiyalarini solishtirish frazeologizmlar qo'llaniladigan kommunikativ sharoitlarga bog'liq ravishda universal va o'ziga xoslikni belgilaydi.

Frazeologizmlarning milliy xususiyati xalqning moddiy-madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy turmushining alohida sharoitlari bilan bog'liq. Har qanday tilning milliy xususiyati boshqa tildagi frazeologizmlar bilan solishtirganda



aniq ko'rinadi. Ko'pchilik frazeologik birliklar o'zining ichki shaklida ushbu xalqning turmush sharoitlari va tarixiy rivojlanish xususiyatlari bilan bog'liq ijtimoiy-madaniy xususiyatni aks ettiradi. V.N. Teliya ta'kidlab o'tganidek, "tilning frazeologik tarkibida mustahkamlangan obrazlar tizimi dunyoga qarashni jamlash uchun o'ziga xos "o'rin" bo'lib xizmat qiladi va ushbu til birlashmasining moddiy, ijtimoiy yoki ruhiy madaniyati bilan qandaydir tarzda bog'langan, shuning uchun uning madaniy-milliy tajribasi va an'alaridan darak berishi mumkin" [5: 21]. "Frazeologiya shu tilda so'zlashuvchi xalqning tarixi, madaniyati, an'analari, adabiyoti bilan zich bog'liq. Bu bog'liqlik tarkibiga atoqli otlar kiradigan frazeologik birliklarda yaqqol ko'rinadi" [4: 128].

Atoqli otlarning milliy-madaniy xususiyatlari har qanday belgilar va tushunchalarni, stereotiplarni, etalonlarni, ramzlarni bog'laydi, ularning asosida dunyoning lingvistik ko'rinishining shakllanishi yuz beradi. Dunyo kartinasi insonning o'zini o'rab turgan atrof-muhit haqidagi barcha bilim va qarashlar yig'indisini aks ettiradi. U inson ong-sezgisidagi "madaniyat qaymog'ini", xalqda uning butun rivojlanishi davomida paydo bo'lgan g'oyalarni anglatuvchi konseptlarni o'rganish yordamida aniqlanadi. Dunyoning lingvistik ko'rinishida, xalqning madaniyatida va tushunchalarida inson obrazi markaziy o'rinni egallaydi, otlar esa odamlarni atashda millat portretini modellashtirishga, insonning jamiyatdagi faoliyatining o'ziga xosligini, u bilan uzluksiz bog'liqligini, shuningdek, jamiyatning inson turmushiga ta'sirini ko'rsatishga imkon beradigan milliy-madaniy xususiyatlarni aniqlash uchun eng ahamiyatli vositalardan biri bo'lib hisoblanadi [2: 19].

Onim komponentli frazeologizmlarning ahamiyati shundan iboratki, ular odatda faqatgina shu xalq nomlanishlarining milliy xususiyatini aks ettiribgina qolmasdan, buning bilan birga, koloritli nomlanishlar orqali shu xalqning o'ziga xos urf-odatlarini, fikrlash usullari, tarixi va mifologiyasi haqida ham xabar beradi. Onim komponentli frazeologizmlarni o'rganish bo'yicha ishlarning deyarli hammasida bu birikmalarning milliy xususiyatlari ta'kidlab o'tiladi. Haqiqatan ham, agar boshqa frazeologik birliklarni (masalan, kasbga bog'liq, somatik, animalistik va h.k.) yaqin qarindosh tillarda ancha ochiq-oydin parallelizmlarini topish oson bo'lsa, atoqli otlar bilan keladigan frazeologizmlarni o'rganishda, agar, albatta, baynalmilal idiomalar (bibliizmlar, mifologik va badiiy frazemalar) chiqarib tashlansa, bunday parallelizm minimumgacha cheklangan. Atoqli otlar madaniy dominanta bo'lib, frazeologiyada milliy-madaniy komponent sifatida xizmat qiladi hamda muayyan bir millat yoki til egasining o'ziga xos jihatlari va belgilarini aniqlashga yordam beradi.

XULOSA

Lingvokulturologik yondashuv turli tillardagi frazeologizmlar semantikasi hajmini aniqlash, ichki shakldagi arxetiplarni, etnik xususiyatlarni hamda konseptual modellarning aksiologik mazmunini ko'rsatishga imkon beradi. Ushbu yondashuv til, madaniyat va kommunikatsiya darajasidagi universal hamda milliy o'ziga xoslikni belgilaydi. Onim komponentli birliklarning qiyosiy tahlili ularning shakllanish manbalari, ma'no ko'chish mexanizmlari, madaniy konnotatsiyasi va tarjima muammolarini aks ettirishga xizmat qiladi. Xalq o'y-fikrining kodlash tizimi bo'lgan bu frazeologizmlar madaniy tushunchalar, tarixiy hodisalar hamda ijtimoiy qadriyatlarni namoyon etadi. Shuning uchun ularning lingvokulturologik va onomastik jihatlari solishtirish hamda ekvivalentlarini ilmiy tahlil qilish hozirgi kunda dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Добрыднева Е.А. Стилистическая дифференциация фразеологизмов в культурно-национальном аспекте // Семантика языковых единиц: Доклады VI международной конференции. Москва, 1998, т. 1. 248-250 с.
2. Катермина В.В. Личное имя собственное: национально-культурные особенности функционирования (на материале русского и английского языков). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. Краснодар: КГУ, 1998. - 19 с.
3. Ковшова М.Л. Сопоставительный анализ фразеологизмов: лингвокультурологический подход. Москва, 1996. с. 2-3.
4. Леонович О.А. Очерки английской ономастики. Пособие для преподавателей. - Москва: Интерпракс, 1994. - 128 с.
5. Телия В.Н. Первоочередные задачи и методологические проблемы исследования фразеологического состава языка в контексте культуры // Фразеология в контексте культуры. - Москва: "Языки русской культуры", 1999. 13-24 с.
6. Xo'jaev, M. O'zbek tilining frazeologiyasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
7. Yusupova B. Qaraqalpaq tilidagi frazeologizmlarning fonostilistikaliq analizi. Nókis: "Qaraqalpaqstan" baspası, 2022.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.